

## BADR JANGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Dinora Eshboyeva,*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Islomshunoslik yo'naliishi, 2-bosqich talabasi  
[dinoraeshboyeva23@gmail.com](mailto:dinoraeshboyeva23@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada islom dini yer yuziga tushurilgandan so'ng, Madina ahli va Makka ahli o'rtasida bo'lib o'tgan biringchi jang, ya'ni Badr jangining o'sha davrdagi ahamiyati, kam sonli musulmonlarning g'alabasi va musulmonlarga berilgan nusrat aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu mavzu yuzasidan turli xil adabiyotlar o'r ganilib, bu boradagi olimlar qarashlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** hijrat, Badr jangi, nusrat, jangning ahamiyati, Badr qudug'i, farishtalar, tosh-tuproq, Anfol surasi, "Furqon kuni".

Ma'lumki, ilk vahiy Makka shahridagi Xiro g'orida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga Jabroil alayhissalom orqali Alloh taolo tomonidan nozil qilindi. So'ngra Makkadagi mushriklar musulmonlarga aziyatlar berib, zulm qilishgach, hijrat qilishga amr qilindi. Hijratdan so'ng Madinada tom ma'noda o'z davlatini tuzgan musulmonlar bilan Makkadagi mushriklar o'rtasida ilk jang bo'lib o'tdi. Bu jang Badr qudug'i atrofida bo'lganligi tufayli tarix sahifalariga "Badr jangi" nomi bilan muhrlandi. Badr jangi haqida Anfol surasida ko'plab ma'lumotlar berilgan. Shuning uchun ham ayrim sahabalar Anfol surasini Badr surasi ham deb atashgan. Ushbu jang hijratning 2-yili Ramazon oyining 17-sanasida bo'lib o'tdi. Ushbu jang bo'lishidan oldin Alloh taolo Badrda yomg'ir yog'dirdi. Buning ham o'ziga xos hikmati bo'lib, ushbu voqealiga mushriklar joylashgan hudud balchiqqa aylanib, mushriklar uchun katta ziyon bo'ldi. Musulmonlar uchun esa bu rahmat yomg'iri bo'lib, ulardan shaytonning vasvasasini ketkazdi va yerni ular uchun yurishga qulay qilib, qumlar qotib, oyoqlar botmaydigan bo'ldi<sup>1</sup>. Jangdan bir kun oldin musulmonlar jangga hozirlik ko'rib bo'lishgach, ertangi kunga ishonch bialn kechasi uyquga ketdilar. Bu haqida Qur'oni Karimda Alloh taolo shunday deydi:

"O'shanda xotirjam bo'lishingiz uchun sizlarni O'z tarafidan uyquga cho'mdirgan va poklab, sizlardan shayton vasvasasini ketkazish uchun dillaringizni bir va qadamlaringizni mahkam hilish uchun ustingizga samodan suv — yomg'ir yog'dirgan edi" (Anfol surasi 11-oyat)<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Safiyurrahmon Muborakfuriy. Ar-rahiqul maxtum (Muborak siyrat). – T: G'ofur G'ulom nomidagi NMIU, 2018. – 632 b.

<sup>2</sup> Shayx Alouddin Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasи. 1992.

Badr jangining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, musulmonlar 313-317 kishi bo‘lishiga qaramasdan (ba’zi manbalardan 300 dan ortiq deb keltiriladi), o‘zlaridan 3 barovar ko‘p bo‘lgan mushriklar ustidan g‘alaba qozonadi. Bu ham bejiz emas, bu urushda Alloh taolo musulmonlarga yordam berdi. Ya’ni Alloh musulmonlarga farishtalardan iborat qo‘shin jo‘natdi. Bu farishtalar Alloh insonni yaratayotganda bu inson yer yuzida senga gunoh qiladi, degan farshtalar edi. Bu ham Alloh taologa ma’lum bo‘lgan o‘ziga xos hikmat asosida edi. Bu haqida Qur’oni Karimda shunday deyiladi:

“Men sizlarga ketma-ket keladigan minglab farishtalar bilan madad berurman”, dedi” (Anfol surasi 9-oyat)<sup>3</sup>.

“Parvardigoringiz farishtalarga: «Albatta, Men sizlar bilan bиргаман, bas, sizlar iymон keltirgan zotlarning (g‘alaba qozonishlariga bo‘lgan ishonchlarini) mahkamlanglar! Men kofir bo‘lgan kimsalarning dillariga qo‘rquv solajakman. Bas, ularning bo‘yinlarini uzinglar, butun-hamma barmoqlarini chopinglar», deb vahiy qilgan edi” (Anfol surasi 12-oyat)<sup>4</sup>.

Ushbu jangdagi o‘ziga xos yana bir voqeа shuki, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam chodirlaridan chiqib, qo‘llariga bir hovuch tosh-tuproq oldi va uni mushriklar tomon quyidagi so‘zlarni aytgancha otib yubordi:

“Bu yuzlar rasvo bo‘lsin”.

Har bir mushrikning yuziga ushbu tosh-tuproq borib tegdi. Tasavvur qilaylik, bir hovuch tuproq qayergacha ham yetib borardi. Ammo bu Allohning O‘z payg‘ambariga bergen mo‘jizalaridan biri edi. Bu haqida Qur’oni Karimda shunday deyiladi:

“(Ey Muhammad, ularning yuziga qo‘lingizdagи bir siqim tuproqni) otgan paytingizda, siz otmadingiz, balki Alloh otdi, va (bu g‘alabani Alloh) O‘z tomonidan mo‘minlarga chiroyli in’om bo‘lsin, deb qildi. Albatta Alloh eshitguvchi, bilguvchidir” (Anfol surasi 17-oyat)<sup>5</sup>.

Shuningdek, Suroqa ibn Molik ko‘rinishiga kirib, mushriklar bilan birga kelgan iblis ham jang boshlangach, qo‘rqib qochishga tushdi. Uni Horis ibn Hishon Suroqa deb o‘ylab, olib qolmoqchi bo‘ldi. Ammo iblis uni itarib yubordi. Qurayshliklar “Ey Suroqa qayerga”, degancha qoldilar. Bu haqida Qur’oni Karimda shunday deyiladi:

“O‘sanda, shayton ularga qilayotgan ishlarini chiroyli ko‘rsatib: “Bu kun sizlardan g‘olib bo‘ladigan biron odam yo‘q, o‘zim sizlarning homiyingizman”, dedi. Endi qachonki ikki jamoat uchrashganida esa, ketiga qaytib ketdi va: “Albatta, men sizlardan bezorman. Men (musulmonlar orasida) sizdar ko‘rmayotgani (ya’ni,

<sup>3</sup> O’sha manba.

<sup>4</sup> O’sha manba.

<sup>5</sup> Shayx Alouddin Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasи. 1992.

farishtalar borligini) ko‘rmoqdaman. Men Allohdan qo‘rqaman. Allohning azobi qattiqdir”, - dedi” (Anfol surasi 48-oyat)<sup>6</sup>.

Ushbu Badr jangi islomning kelajagi uchun asos bo‘ldi. U haq bilan bobilni ajratuvchi jang bo‘lganligi uchun ham Qur’oni Karimda “Furqon (ajrim) kuni” deyiladi. Bundan tashqari, ushbu jang musulmonlarning iymoni mustahkamligini, payg‘ambarning haqligini va doimo Allohga ishonish kerakligi ham ochiq-oydin ko‘rsatib berdi. Badr jangidan musulmonlar urushda qanday bo‘lishi kerakligi, o‘ljalarni bo‘lish ishlari va asirlarga munosabat masalalarini ham o‘z davrida va hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Shayx Alouddin Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. 1992.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – I. – T.: “Hilol Nashr”, 2021. -512 b.
3. Safiyurrahmon Muborakfuriy. Ar-rahiqul maxtum (Muborak siyrat). – T: G‘ofur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018. – 632 b.
4. Abdulmalik ibn Hishom al-Ma’ofiri. As-Siyra an-Nabaviyya. – I. – T.: “Hilol Nahr”, 2020. 384 b.

---

<sup>6</sup> O’sha manba.